
TOSHLOQ TUMANIDA 3-SEKTOR RAHBARINING SAYYOR QABULI BO‘LIB O‘TDI

Toshloq tumani “Qanjirg‘a” MFYda tuman IIB boshlig‘i, 3-sektor rahbari Avazbek Kattabekovning navbatdagi qabuli o‘tkazildi.

Qabulda asosan oilaviy masalalar, ishga joylashish, imtiyozli kredit ajratish, davolanish uchun moddiy yordam ajratish, kadastr, sud-huquq masalalari bilan bog‘liq muammolar va yana bir nechta turdagi masalalar yuzasidan murojaatlar kelib tushdi.

Ichki ishlar rahbari qabulida 20 ga yaqin murojaatlar tinglanib, shu joyning o‘zida mutasaddilar bilan birgalikda 9 ta murojaat ijobiy hal etildi. Har bir fuqaro bilan suhbat davomida ularga muammosiga bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkilot rahbarlari biriktirilib, hal etish choralari ko‘rildi.

2024-07-26 08:25:01